

UDK: 631.6:528.44

**SUG'ORILADIGAN QISHLOQ XO'JALIGI YERLARINING HOLATINI
BAHOLASHDA XATLOV VA MONITORING
TADQIQOTLARINI AHAMIYATI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18618335>

Karimov San'at Ilxomovich

e-mail: sanatziyoda@gmail.com

Isoqov Akmal Alijon o'g'li

e-mail: akmalisaqov388@gmail.com

Tursunov Muhammadsoxib Muhammadqosim o'g'li

e-mail: muhammadsohibtursunov8@gmail.com

G'ulomov Sardorjon Ravshanjon o'g'li

e-mail: sardor9978@gmail.com

G'aniyev Ochilbek Orifjon o'g'li

tadqiqotchi

<https://orcid.org/0009-0005-2200-8446> e-mail : ochilbekganiyev@bk.ru

Annotatsiya

Maqolada O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sug'oriladigan yerlarning hozirgi holatini baholashga qaratilgan xatlov va monitoring tadqiqotlarining ilmiy-amaliy natijalari yoritilgan bo'lib, tadqiqot jarayonida dala kuzatuvlari va kameral tahlillar asosida ushbu yerlarning miqdoriy hamda sifat holati baholandi. Olingan natijalar meliorativ muammolarni aniqlash, yer resurslaridan samarali foydalanish hamda foydalanishdan chiqqan yerlarni qayta qishloq xo'jaligi aylanmasiga kiritish imkoniyatlarini belgilashga xizmat qilishi bilan birga, sug'oriladigan yerlarni barqaror boshqarish, meliorativ tadbirlarni takomillashtirish va zamonaviy monitoring tizimlarini joriy etish bo'yicha ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishda muhim amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar

sug'oriladigan yerlar, xatlov, monitoring, meliorativ holat, qishloq xo'jaligi yerlari, yer resurslarini boshqarish.

Аннотация

В статье представлены научно-практические результаты инвентаризационных и мониторинговых исследований, направленных на оценку современного состояния орошаемых сельскохозяйственных земель Республики Узбекистан. На основе полевых наблюдений и камеральных

анализов проведена количественная и качественная оценка указанных земель. Полученные результаты способствуют выявлению мелиоративных проблем, повышению эффективности использования земельных ресурсов и определению возможностей возврата выведенных из оборота земель в сельскохозяйственное производство, а также принятию научно обоснованных решений в сфере устойчивого управления орошаемыми землями и совершенствования мелиоративных мероприятий.

Ключевые слова

орошаемые земли, инвентаризация земель, мониторинг, мелиоративное состояние, земли сельскохозяйственного назначения, управление земельными ресурсами.

Abstract

The article presents the scientific and practical results of inventory and monitoring studies aimed at assessing the current condition of irrigated agricultural lands in the Republic of Uzbekistan. Based on field observations and office analyses, the quantitative and qualitative status of these lands was evaluated. The obtained results contribute to identifying meliorative problems, improving the efficiency of land use, and determining opportunities to reintegrate abandoned lands into agricultural production, as well as supporting scientifically grounded decision-making in sustainable land management and the improvement of meliorative measures.

Key words

irrigated lands, land inventory, monitoring, meliorative condition, agricultural lands, land resource management.

Kirish So'nggi yillarda sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlarining meliorativ holatining yomonlashuvi, suv resurslarining cheklanishi va antropogen bosimning ortishi yer resurslaridan foydalanish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, sho'rlanish, yer osti suvlarining ko'tarilishi va drenaj tizimlarining eskirishi sug'oriladigan yerlarning ishlab chiqarish salohiyatini pasaytiruvchi asosiy omillar hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida sug'oriladigan yerlar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy resurs bazasi bo'lib, ularning holatini tizimli baholash, meliorativ holati yomonlashgan va foydalanishdan chiqib ketgan yerlarni aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sanaladi. Shu bois sug'oriladigan yerlarni xatlovdan o'tkazish va monitoring qilish yer resurslarini barqaror boshqarishning muhim vositasi hisoblanadi. Mazkur tadqiqot sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlarining hozirgi holatini baholash, meliorativ muammolarni

aniqlash hamda foydalanishdan chiqib ketgan yerlarni qayta qishloq xo'jaligi aylanmasiga kiritish imkoniyatlarini ilmiy asoslashga qaratilgan. Natijada, sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlaridan oqilona, samarali va barqaror foydalanishga qaratilgan ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish uchun ishonchli axborot bazasi shakllanib, yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga hamda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi.

Mavzuning dolzarbligi. Sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlarining meliorativ holati yomonlashuvi, suv resurslarining cheklanishi hamda yer resurslariga antropogen bosimning ortishi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligini pasaytirmoqda. Shu sababli sug'oriladigan yerlarni xatlovdan o'tkazish va monitoring qilish orqali ularning holatini aniq baholash, meliorativ muammolarni aniqlash hamda foydalanishdan chiqib ketgan yerlarni qayta qishloq xo'jaligi aylanmasiga kiritish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Bu borada mamlakatimizda ham hukumat darajasida ilmiy-amaliy ishlar olib borilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-dekabrda PQ-455-son qarori[1], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-yanvardagi "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda monitoring ishlarni amalga oshirish, yerlarni muhofaza qilish va yer tuzish faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 22-son qaror[2]lari ijrosini ta'minlash maqsadida Qishloq xo'jaligi vazirligi "O'zdavyerloyiha" davlat ilmiy loyihalash instituti tomonidan sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlarini xatlovdan o'tkazish ishlari olib borilmoqda.

Tadqiqot obyekti va uslublari: Tadqiqot obyekti sifatida Jizzax viloyati Do'stlik tumani hududidagi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sug'oriladigan yerlar hisoblanadi. Xatlov ishlari ushbu sohada keng qo'llanilib kelinayotgan uslublar [3, 4, 5] asosida amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. O'tkazilgan xatlov va monitoring tadqiqotlari natijasida Do'stlik tumani hududidagi sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlarining miqdoriy va sifat holati baholandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tumandagi jami sug'oriladigan yerlar maydoni 35 136,8 gektarni tashkil etib, ushbu maydon qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy resurs bazasi sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur yerlarning 34 773,1 gektari sug'oriladigan haydalma yerlardir. Sug'oriladigan haydalma yerlarning 34 686,1 gektari ekin ekishga yaroqli deb baholangan bo'lib, bu hududda qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish uchun zarur agroekologik va agrotexnik sharoitlar asosan saqlanib qolganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, xatlov natijalari sug'oriladigan yerlar

tarkibida muayyan meliorativ cheklovlar mavjudligini ham aniqlash imkonini berdi.

Xususan, 974,2 gektar sug'oriladigan yer maydonida meliorativ holatning yomonlashgani qayd etildi. Ushbu holat asosan yer osti suvlarining sathi ko'tarilishi, drenaj tarmoqlarining eskirishi yoki yetarli darajada ishlamasligi, shuningdek sho'rlanish jarayonlarining kuchayishi bilan bog'liq. Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, meliorativ holati yomonlashgan yerlar uzoq muddatli istiqbolda ekinlar hosildorligining pasayishiga, tuproq unumdorligining kamayishiga hamda yer degradatsiyasi jarayonlarining jadallashishiga olib kelishi mumkin.

Xatlov jarayonida 77,0 gektar yer maydonining qishloq xo'jaligi foydalanishidan chiqib ketgani aniqlanib, mazkur yerlar meliorativ va agrotexnik jihatdan iqtisodiy samaradorligi past bo'lgan hududlar sirasiga kiradi. Biroq tadqiqot natijalari salbiy holatlar bilan bir qatorda ijobiy o'zgarishlarni ham ko'rsatdi. Jumladan, amalga oshirilgan meliorativ va tashkiliy chora-tadbirlar natijasida 28,9 gektar yer maydoni qayta qishloq xo'jaligi aylanmasiga kiritilgan. Bundan tashqari, 34,2 gektar yer maydonining yangidan o'zlashtirilgani tumanda yer resurslaridan foydalanish salohiyati hali to'liq ishga solinmaganligini va ushbu yo'nalishda maqsadli siyosat olib borilayotganini ko'rsatadi.

Ko'p yillik daraxtzorlar tarkibining tahlili ham hududiy yer resurslaridan foydalanish samaradorligini baholashda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Do'stlik tumanida 188,5 gektar bog'zorlar, 20,2 gektar tokzorlar, 105,2 gektar tutzorlar, 26,5 gektar terakzorlar hamda 23,5 gektar boshqa turdagi ko'p yillik daraxtzorlar mavjudligi aniqlandi. Mazkur daraxtzorlar hududning agroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash bilan birga ekologik muvozanatni saqlashda ham muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, ayrim daraxtzorlar maydonlarida sug'orish tizimlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi ularning hosildorligini cheklayotgan omillardan biri sifatida qayd etildi.

Sug'oriladigan ekin yerlarida joylashgan issiqxonalar maydonining 9,4 gektarni tashkil etishi hududda intensiv qishloq xo'jaligi texnologiyalarining bosqichma-bosqich joriy etilayotganidan dalolat beradi. Issiqxona xo'jaliklari suv va yer resurslaridan nisbatan samarali foydalanish, yil davomida barqaror mahsulot yetishtirish hamda yuqori qo'shimcha qiymatga ega qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari Do'stlik tumani sug'oriladigan yerlarining muayyan qismi meliorativ va tashkiliy muammolarga ega ekanligini ko'rsatib, ularni barqaror qishloq xo'jaligi aylanmasida saqlab qolish uchun integratsiyalashgan meliorativ, agrotexnik va boshqaruv choralari amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi. Xususan, drenaj tizimlarini modernizatsiya qilish,

suvdan foydalanishni optimallashtirish, yerlarning holatini masofadan zondlash va geoinformatsion texnologiyalar asosida muntazam monitoring qilish hududiy yer resurslarini samarali boshqarishning ilmiy asoslangan yo'nalishlari sifatida baholanadi.

Xulosa, taklif va tavsiyalar.

1. Do'stlik tumani hududida sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlarining umumiy maydoni 35,1 ming gektardan ortiq bo'lib, uning asosiy qismini sug'oriladigan haydalma va ekin ekishga yaroqli yerlar tashkil etishi tumanda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun zarur va barqaror resurs bazasi mavjud ekanligini ko'rsatadi.

2. Xatlov va monitoring natijalari sug'oriladigan yerlar tarkibida meliorativ holati yomonlashgan maydonlar mavjudligini aniqlab, ushbu yerlar asosan yer osti suvlarining ko'tarilishi, drenaj tizimlarining eskirishi va sho'rlanish jarayonlarining kuchayishi bilan bog'liqligini tasdiqladi.

3. Qishloq xo'jaligi foydalanishidan chiqib ketgan yerlarning mavjudligi yer resurslaridan foydalanishda hududiy va texnik muammolar saqlanib qolayotganini ko'rsatsada, qayta foydalanishga kiritilgan va yangidan o'zlashtirilgan yerlar mavjudligi meliorativ va tashkiliy choralar orqali ijobiy natijalarga erishish mumkinligini asoslaydi.

4. Meliorativ holati yomonlashgan sug'oriladigan yerlar bo'yicha drenaj tarmoqlarini rekonstruksiya qilish va yer osti suvlarining sathini pasaytirishga qaratilgan kompleks meliorativ tadbirlarni hududiy dasturlar asosida bosqichma-bosqich amalga oshirish tavsiya etiladi.

5. Sug'oriladigan yerlarning holatini baholash va o'zgarishlarni tezkor aniqlash maqsadida masofadan zondlash ma'lumotlari hamda geoinformatsion texnologiyalar asosida doimiy monitoring tizimini joriy etish maqsadga muvofiq.

6. Qishloq xo'jaligi foydalanishidan chiqib ketgan yerlarni qayta aylanmaga kiritishda agrotexnik va iqtisodiy samaradorlikni inobatga olgan holda rekultivatsiya hamda melioratsiya chora-tadbirlarini ustuvor yo'nalish sifatida belgilash lozim.

7. Ko'p yillik daraxtzorlar va issiqxona xo'jaliklarida suvdan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida tomchilatib sug'orish va suv tejoychi texnologiyalarni keng joriy etish orqali yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish ta'minlanishi zarur.

8. Sug'oriladigan yerlarni boshqarish tizimida normativ-huquqiy, tashkiliy va ilmiy asoslarni uyg'unlashtirgan holda hududiy yer resurslarini boshqarishning integratsiyalashgan modelini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2025-yil uchun Davlat byudjeti to'g'risidagi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-455-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-yanvardagi "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda monitoring ishlarni amalga oshirish, yerlarni muhofaza qilish va yer tuzish faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 22-son qarori.
3. R.A.Turaev, B.N.Inamov, O.O'.Davronov, Q.M.Hojiev, N.B.Abdullaev,
4. S.Z.Safaev, N.O.Shukurova, J.N.Qutlimurotov, Sh.O. Alimaxamatova, M.U.Zaripboeva, A.A.Abdusalomov. Sug'oriladigan yerlarni xatlovdan o'tkazish va axborot bazasini yaratish bo'yicha uslubiy qo'llanma. - Toshkent: "PUBLISHING HIGH FUTURE" OK nashriyoti, 2024. 24-b.
5. R.A.Turayev. Sug'oriladigan yerlar monitoringini yuritish metodologiyasini takomillashtirish 2021.
6. I.L.Akramov. Qishloq xo'jaligi yerlari monitoringini yuritish usullarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish 2025.
7. Jizzax viloyati Do'stlik tumani massivlaridagi qishloq xo'jaligida foydalanishga kiritilgan yerlar, meliorativ holati yomonlashgan yerlar, qishloq xo'jaligi foydalanishidan chiqib ketgan yerlar hamda yaroqsiz holatga kelib qolgan ko'p yillik daraxtzorlar egallagan yer maydonlarini xatlovdan o'tkazish va sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlarida o'tkazilgan monitoring ishlari hisoboti / "O'zdavyerloyiha" davlat ilmiy-loyihalash instituti "Jixvilyerloyiha" hududiy bo'linmasi hisoboti. - Jizzax, 2025.